O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA MENEJMENT UNIVERSITETI

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR



Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
2025-yil 24-25-oktabr

II

Qarshi-2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA MENEJMENT UNIVERSITETI

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami

II QISM

Qarshi-2025

chegaralari bo‘lishi shart emas, chunki mintaqa har qanday hududni, mamlakatni hatto bir guruh mamlakatlarni qamrab olishi mumkin.

Turizm mintaqasi turizmni boshqarishning bir turi sifatida turli jihatlardan ko‘rib chiqishni talab qiladi:

geografik makon sifatida -shahar, viloyat, mamlakat, tuman yoki qishloq;

bir qator geografik hududlar majmui sifatida-bir necha mamlakat, qishloqlar, mintaqalar va b..

Xulosa va takliflar: Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib xulosa o‘rnida aytish lozimki, har bir mintaqada turizmni rivojlantirishning potensial zonasi sifatida turistik resurslar va infratuzilma, iqtisodiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi, aholining mentaliteti va ehtiyojlari, demografik va migrasiya jarayonlari, malakali kadrlar bilan ta’minlash kabilarga ega bo‘lishi kerak. Tadqiqot mavzumizning belgilangan vazifalaridan kelib chiqib quyidagi takliflarni tavsiya etamiz:

1. Turistik mintaqalashtirishning ilmiy prinsiplarini ishlab chiqish va ularni yanada rivojlantirish;
2. Rivojlanmagan joylarda turizmni rivojlantirish uchun yangi rekreasion resurslar va boshqa shart-sharoitlarni aniqlash ;
3. Har xil buyurtmali yangi turistik hududlarni aniqlash va yaratish, ularning sayyohlik ixtisosligini to‘g‘ri aniqlash;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.htpp // www..internet materiallari

2.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi . To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent : “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.-440 bet.

3.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. T.: 2008 y.

4. Некрасов Н.Н. Региональная экономика. М.: Экономика, 1975. с . 22-23

5. Стратегии макрорегионов России: Методологические подходы, приоритеты и пути реализация / под ред. Гранберга Г.; М.: Наука, 2004. с.479.

6.Tuxliyev I.S., Po‘latov M.E., Berdimurodov A.Sh. “Turizm sohasining zamonaviy atamalari izohli luhati”. S.: 2019 y.

ZAMONAVIY TURIZMGA KADRLAR TAYYORLASHNING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Raxmatov Adxam Itolmasovich

Buxoro davlat texnika universitetining mustaqil tadqiqotchisi, dotsent.

Annotatsiya: O‘zbekistonda hozirgi kunda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga muvofiq mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning muhim shartlari va omillari bo‘lgan ta’lim, fan, texnika taraqqiyoti sohalarini moliyalashtirish va ularni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo ushbu jarayonlarni samarali natijalar berishida malakali kadr muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai-nazardan maqolada zamonaviy turizmga kadrlar tayyorlashning shakllanish va rivojlanish bosqichlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar:turizm, mintaqaviy turizm, turindustriya, innovatsiya, ijtimoiy, malakali kadr , savdo, milliy, hudud, davlat .

Аннотация: В соответствии с проводимой в Узбекистане социально-экономической политикой финансирование и поддержка развития образования, науки и технологий, являющихся важными условиями и факторами формирования инновационной экономики страны имеют большое значение. Однако одним из важных

факторов, обеспечивающих эффективность этих процессов являются квалифицированные кадры. С этой точки зрения в статье рассматриваются этапы становления и развития системы подготовки кадров для современной сферы туризма.

Ключевые слова: туризм, региональный туризм, туристическая индустрия, инновации, социальный, квалифицированные кадры, торговля, национальный, территория, государство.

Abstract: In accordance with the current socio-economic policy in Uzbekistan, financing and supporting the development of education, science, and technology, which are important conditions and factors for the formation of an innovative economy in the country, is of great importance. However, qualified personnel are one of the important factors in ensuring that these processes produce effective results. From this point of view, the article describes the stages of formation and development of personnel training for modern tourism.

Key words: tourism, regional tourism, tourism industry, innovation, social, qualified personnel, trade, national, territory, state.

Kirish: Turizm sohasida kadrlar bilan ta’minlash tizimini shakllantirish borasidagi konsepsiya yo‘nalishini belgilashda respublikada kasb-xunar o‘rganish uchun sharoitlar kengaytirilayotganligini alohida qayd qilish mumkin. Mana shunday yondashulardan biri, bu 2022-yilning 15-iyun kuni Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida aholini kasb-hunarga tayyorlash va monomarkazlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishida bildirgan munosabati bo‘ldi. U yerda qayd qilingadek: **“**Mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish...kabi ko‘plab sohalar rivojlanib, yangi-yangi korxonalar ochilmoqda. Ularni malakali ishchi va mutaxassislar bilan ta’minlash maqsadida oliy va o‘rta maxsus ta’lim yo‘nalishlari o‘zgartirilmoqda ”[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta’kidlash lozimki, tashkilot(tarmoq) darajasida, bizning fikrimizcha, “xodimlar” va “kadrlar” atamalari ko‘proq qo‘llaniladi. “Xodimlar” tushunchasidan foydalanilganda, kasbiy yoki xizmat ko‘rsatish asoslari bo‘yicha guruhni tashkil etuvchi ma’lum bir tashkilotning xodimlaridir[2]. Shu munosabat bilan, ushbu tushunchadantarmoq darajasida kadrlar muammolarini ko‘rib chiqishda qo‘llash maqsadga muvofiq emas.

Kadrlarni tavsiflashda ularning soni, jinsi va yoshi, umumiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi, malaka tarkibi yoki kasbiy guruhdagi ma’lum bir malaka darajasiga tegishliligi, ish tajribasi kabi miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlariga e’tibor berishlilik muhim ahamiyatga ega. Mehnat faoliyatining turi va murakkabligi va xodimlar tomonidan 2007-yilgacha bajariladigan funksiyalarning xususiyatiga qarab, kadrlarning kasblari tasniflagichiga muvofiq, ularning lavozimlari va ish haqi toifalari yagona tasniflash va O‘zbekiston axborotini kodlash tizimi doirasida asosiy toifalarga bo‘lingan: ishchi kadrlar, xizmatchi kadrlar, ilmiy kadrlar, rahbar kadrlar. Turizm sohasida kadrlar xizmatining ish amaliyotida ushbu tasniflagich hali ham qo‘llaniladi. Buning sababi, sohada professional standartlar hali joriy etilmaganligi, unga ko‘ra barcha xodimlar professional guruhlar ichida ettita malaka darajasiga bo‘lingan.Shu bilan birga, I.P. Fedorov [3] ning fikriga ko‘ra, “kadrlar” atamasi ko‘pincha jismoniy va aqliy mehnat ishchilarining eng malakali qismini anglatganda tor ma’noda qo‘llaniladi. Bu bayonot bugungi kungacha ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu tadqiqotda “kadrlar” toifasida biz tashkilotlarda doimiy ravishda ishlaydigan ishchi kuchi bir qismining haqiqiy kontingentini tushunamiz. Bizning fikrimizcha, bunday tushunish xodimlarni boshqarishning miqdoriy va sifat jihatidan o‘ziga xos mexanizmini ishlab chiqishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil qilish, xorijiy va O‘zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish va tahlil qilish orqali olingan ma’lumotlar asosida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu tadqiqotda “kadrlar” toifasida biz tashkilotlarda doimiy ravishda ishlaydigan ishchi kuchi bir qismining haqiqiy kontingentini tushunamiz. Bizning fikrimizcha, bunday tushunish xodimlarni boshqarishning miqdoriy va sifat jihatidan o‘ziga xos mexanizmini ishlab chiqishga imkon beradi.

1-jadval

Zamonaviy turizmga kadrlar tayyorlashning shakllanish va rivojlanish bosqichlari[50]

Bosqichlar	Amalga oshirilgan ishlar ko‘lami haqida qisqacha ma’lumotlar
Birinchi bosqich-1845-1918 yillar	Xalqaro turizm rivojlanishiga tamal toshini Tomas Kuk qo‘ydi. Xalqaro turizmni tashkil qilishga ilmiy tomondan yondashildi. Turistik firmalar vujudga keldi va xizmat ko`rsatuvchi xodimlar faoliyat ko`rsata boshladi. Turizmda kadrlarning iqtisodiy mohiyati tushuntirib berildi. Turizmda takomillashgan transport vositalaridan (temir yo‘l va paroxod) foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Mahalliy, davlatlar o‘rtasida, qi’talararo turistik yo‘nalishlar ishlab chiqildi, tarjimonlar, boshqaruvchi xodimlar jalb etildi va sayohatlar amalga oshirildi.
Ikkinchi bosqichi - 1921-1939 yillar	Birinchi jahon urishining nihoyasiga etishi bilan turizm qayta tiklana boshladi, xususiy mehmonxonalar (yuqori klassdagi), dengiz bo‘yilarida dam olish maskanlari, kurortlar qurilishi jadallashdi va unga mos ravishda xodimlar faoliyatga jalb etildi. Turistlarga transportda xizmat ko‘rsatish tizimi (harbiy samolyotlar fuqarolarni tashishga moslashtirildi, avtomabillar ishlab chiqarish kengaytirildi, dengiz transporti rivojlanishi yangi bosqichga o‘tdi) yangicha ko‘riniga ega bo‘ldi va malakali kadrlarga bo`lgan ehtiyoj ortdi.
Uchinchi bosqichi – 1951-1975 yilllar	Ikkinchi jahon urishi tugashi bilan xalqaro turizm qaytadan oyoqqa tura boshladi. Xalqaro turizmga integrasion jarayonlar kirib kela boshladi. Bronlashtirishning hozirgi zamon kompyuter tizimi –Computer Reservation System (CRS)ga asos solindi. Havo transportida rezervlashtirish tizimlari (“American Airlenes” va “United Airlines” kompaniyalari) yaratildi , turoperatorlikni zamonaviy shallariga ehtiyoj etildi.
To‘rtinchi bosqichi - 1975-1995 yillar	Turizmda axborot-kommunikasion texnologiyalar, global distribyutor tizimi (Global Distribution Systemes - GDS) keng joriy qilindi. Transmilliy kompaniya (TMK)lar turizmga (mehmonxona, ovqatlantirish, transporda) kirib kelishi yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tezlashtirdi. Turizmda integrasion jarayonlar yangi rivojlanish bosqichiga kirdi.
Beshinchi bosqichi – 1995-2010 yillar	Globallashuv jarayonlarining vujudga kelishi natijasida **“Zamonaviy turizm”** tushunchasi qo‘llanila boshlandi. Turizmning jahon YaIMda ulishi ortib bordi, eksport salohiyati oshirildi, investisiyaning barqaror oqimi ta’minlandi, bandlik oshdi. Turizmda strategik alyanslar (mehmonxonalar, havo transportida) paydo bo‘la boshladi. Malakali kadrlar tayyorlashni klaster usuli turizmda qo‘llana boshlandi.
Oltinchi bosqichi – 2010 yildan hozirgacha	Turizmda raqamli innovasion-texnologiyalar joriy qilina boshlandi. Turistlar uchun makondan tashqarida sayohatlar (kosmik turizm) taklif qilina borlandi, vertual turxizmatlar ko`rsatuvchi malakali kadrlar toifasi shakllandi.

Hatto keyingi o‘n yillikda shu narsa namoyon bo‘layaptiki, ba’zi mamlakatlarda turizmga moslashtirilgan maxsus hududlar (regionlar) tashkil qilinmoqda. Bularning asosiylari tog‘li

[50]Tadqiqotchtomonidanxalqaroturizm infra tuzilmasiningrivojlanishibosqichlargabo‘libchiqildi.

hududlarda, dengiz qirg‘oqlarida, tabiati go‘zal joylarda tashkil etilmoqda. Bu esa yo‘nalishlar geografiyasini kengaytirish bilan birga zamonaviy malakali kadrlarga bo`lgan talabning oshishiga, tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashuviga olib kelmoqda.

Xalqaro turizm o‘zining rivojlanish bosqichlari va yo‘nalishlarining takomillashuvi natijasida uni tasniflash va turkumlarga bo‘lishga ehtiyoj sezildi. Shundan kelib chiqqan holda xalqaro turizmni tashkil qilish turiga qarab tasniflanadi.

2-Jadval

Xalqaro turizm turxizmat ko‘rsatuvchi malakali kadrlarning turlari va tashkillashtirilish bo‘yicha tasniflanishi[51].

№	Malakali kadrning tasnifiy belgisi	Turizmturlari
1	Sayohatlar uchun turxizmat ko`rsatuvchi xodimlar	Dam olish va rekreasiya (Leisure & Recreation), davolanish (Health Treatment), ishga doir (Business & Incentive), ta’lim (Educational), diniy (Religion), etnik (Ethnic), maxsus (special), sport (sports tourism), ekologik (ecological) va boshqalar
2	Turxizmat ko`rsatuvchi malakali kadr xizmat takliflar turi	Yakka holda (FIT), guruh bo‘lib (Group), xizmat ko‘rsatish jamlanmasi (Package tour), hammasi qo‘shilgan (All - inclusive), klubda dam olish (Slub Holidays), alohida e’tibor beriladigan xizmat (VIP) va boshqalar.
3	Malakali kadrturxizmatiga buyurtmachilar turi	Korporativ (Corporate commercial) Korporativ (Corporate commercial)

Xulosa: Yuqoridagi fikrlarni va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida turizmning tutgan o‘rnini hisobga olib, u kishilarning ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynashi, insonlarni bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazish, olamni bilish, davlatlararo iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy aloqalarni kuchaytirish, jahon xo‘jaligida eng foydali tarmoqlardan biriga aylanishi mumkin degan xulosa chiqarishga asos bor. Haqiqatdan ham, xalqaro turizm tajribasi malakali kadrlar tayyorlash borasida dunyo miqyosida juda katta ishlarni amalga oshirish mumkinligi namoyon bo‘lib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Касб-ҳунар ўрганиш учун шароитлар кенгайтирилади./Халқ сўзи, 2022 йил, 16 июнь. №125. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 15 июнь куни аҳолини касб-ҳунарга тайёрлаш ва мономарказлар фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари юзасидан

2.Маслоу А. Дальние пределы человеческой психики / А. Маслоу. - СПб. : Евразия, 1999. 430 с.

3.Федоров И.П. Качество образования категория фундаментальная/ И.П.Федоров // Высшее образование в России. 2000. № 2. С. 3-7.

[51]Tadqiqotch tomonidan turizm turi bo‘yichatuzibchiqilgantasniflagich.

60.	***Talimova L.A.*** ***Narmamatov I.B.*** ***Nabiyev F. S.***	***The participation of cash flow in non-cash settlements in Uzbekistan***	***235***
61.	***Nasimovna S.X.***	***O‘zbekistonda fintex bozori: rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari***	***239***
62.	***Kodirjon S. J.*** ***Prof. Kayrat A. Utarov***	***Modern trends in education in digitalization***	***242***
63.	***Jumanazarov K.S.***	***Digital transformation of the public administration system in the context of digitalization of the economy***	***245***
64.	***Xushmurotov Z.B.***	***Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish tizimining nazariy asoslari.***	***248***
65.	***Xolmuradov O.N.***	***Foyda solig‘i buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish***	***251***
66.	***Berdiyev A. H.***	***Agroklasterlar faoliyatini baholashning samaradorlikka ta’siri***	***254***
67.	***Berdiyev A. H.*** ***Uzaqov J. N.***	***Soliq va byudjet siyosatining uzoq muddatli maqsadlari: barqaror iqtisodiy o’sish omili sifatida***	***262***
68.	***Rasulov X. Q.***	***Qishloq xo‘jaligida raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi***	***267***
69.	***Хайдаров Н.Х.***	***Давлат корхоналарини молиявий қўллаб қувватлашнинг объектив зарурати***	***273***
70.	***Raxmatov A. I.***	***Jahon turindusrtriya tizimida mintaqaviy turizmni tasnifiy belgilari***	***278***
71.	***Raxmatov A. I.***	***Zamonaviy turizmga kadrlar tayyorlashning shakllanish va rivojlanish bosqichlari***	***281***
72.	***Джалилов Р. Х.***	***Налоговая политика в условиях цифровой экономики в республике узбекистан и ее влияние на механизм косвенных налогов***	***285***
73.	***Aminov F. B.***	***“Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi***	***290***
74.	***Аминов Ф. Б.***	***Опыт зарубежных стран по переходу к "зелёной" экономике и возможности его применения в регионах Узбекистана***	***294***
75.	***Хайриддинов А. Б.*** ***Boynazarova U.***	***Миллий иқтисодиётга хорижий инвестицияларни жалб этишнинг аҳамияти***	***298***
76.	***Аминов Ф. Б.*** ***Омонкулова Ч. Ж.***	***Развитие информационных технологий в Узбекистане***	***303***
77.	***S. A. Slassi Mutabir***	***Sharing as part of the circular economy***	***308***
78.	***Сапарова А.А.*** ***Төлебекова Н.Т.***	***Децентрализованные финансы (defi): будущее финансовых систем или временный тренд?***	***309***
79.	***Eshev A.S.*** ***Jurayeva L.S.*** ***Madaminov I. T.***	***Analysis of the dynamics of agricultural production in the region***	***316***
80.	***Хайриддинов А. Б.*** ***Boynazarova U.***	***Hududiy iqtisodiyotini rivojlantirish omillari***	***324***

Musahhih: I. Tog‘ayev
Texnik muharrir: K. Qudratova

Bosishga ruxsat etildi: 21.10.2025 y.
Ofset qog‘oz. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16.
“Cambria” gar. Ofset bosma.
Hisob nashriyot t.: 50,84.
Adadi: 25 nusxa. Buyurtma №249

« ILM-FAN-MA’NAVIYAT » nashriyotida tayyorlandi.
Qarshi sh, Bunyodkor MFY Mustaqillik ko‘chasi 10/28-30-uy
Telefon 91-466-80-32.